

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA MAKTAB PSIXOLOGIK XIZMATINING YANGI YO'NALISHLARI

Murtazaeva Dilbar Jangabaevna

Nukus tumani 30-son umumtalim maktabi amaliyotchi psixologi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20716593>

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi sharoitida maktab psixologik xizmatining yangi yo'nalishlari, vazifalari va faoliyat mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayonlari ta'lim tizimiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda qator psixologik muammolarni ham olib kirgan. O'quvchilarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi, masofaviy ta'limning kengayishi, kiberxavfsizlik, raqamli qaramlik, virtual muloqot va psixologik farovonlik masalalari maktab psixologlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga aylanmoqda. Tadqiqotda maktab psixologik xizmatining raqamli transformatsiya sharoitidagi o'рни, o'quvchilar, pedagoglar va ota-onalar bilan ishlashning innovatsion usullari hamda psixologik xizmat samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, maktab psixologi, psixologik xizmat, masofaviy ta'lim, kiberxavfsizlik, raqamli qaramlik, sun'iy intellekt, psixologik diagnostika, psixologik profilaktika,

XXI asr axborot texnologiyalari asri sifatida inson hayotining barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari o'quvchilarning bilim olish usullari, pedagoglarning faoliyati va psixologik xizmat mazmunini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, ular bilan bog'liq yangi psixologik muammolar ham yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda o'quvchilarning katta qismi internet, mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanmoqda. Bu holat ularning muloqot madaniyati, emotsional holati, o'zini anglash jarayoni va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli maktab psixologlari faoliyatining an'anaviy yo'nalishlari bilan bir qatorda yangi raqamli yo'nalishlarni ham rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Raqamli ta'lim muhiti deganda ta'lim jarayonida elektron platformalar, internet resurslari, masofaviy ta'lim tizimlari, sun'iy intellekt vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan pedagogik muhit tushuniladi. Ushbu muhit o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, psixologik xizmat oldiga yangi vazifalarni ham qo'yimoqda. Raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarning kognitiv faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Elektron axborotlarning ko'pligi diqqatning tez chalg'ishiga, ma'lumotlarni yuzaki qabul qilishga va uzoq muddatli xotira faoliyatining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, internet va ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilarda emotsional zo'riqish, yolg'izlik hissi, uyqu buzilishlari va tashvish darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli maktab psixologlari raqamli muhitning o'quvchilar ruhiyatiga ta'sirini muntazam monitoring qilib borishlari lozim. Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilar virtual muloqotga ko'proq vaqt ajratadilar. Natijada real ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishida ayrim qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bu holat psixologik xizmat oldiga yangi vazifalarni qo'yadi. Raqamli transformatsiya sharoitida maktab psixologik xizmatining asosiy yo'nalishlari kengayib bormoqda. Avvalo, raqamli diagnostika usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy onlayn platformalar yordamida psixologik testlar o'tkazish, natijalarni avtomatik tahlil qilish va

individual tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratilmoqda. Raqamli psixologik maslahat xizmatlari ham yangi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda videomuloqot, messenjerlar va maxsus platformalar orqali psixologik maslahatlar tashkil etilmoqda. Bu ayniqsa uzoq hududlarda yashovchi o'quvchilar va ota-onalar uchun qulaylik yaratadi. Yana bir muhim yo'nalish kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirishdir. O'quvchilar internetdan foydalanish jarayonida turli xavflarga duch kelishlari mumkin. Kiberbulling, firibgarlik, zararli kontent va shaxsiy ma'lumotlarning oshkor bo'lishi shular jumlasidandir. Maktab psixologi pedagoglar bilan hamkorlikda o'quvchilarda xavfsiz internetdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur. Raqamli ta'lim muhitida eng dolzarb muammolardan biri kiberbulling hisoblanadi. Kiberbulling internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsga nisbatan ruhiy bosim o'tkazish, haqorat qilish yoki tahqirlash holatlaridir. Kiberbullingning salbiy oqibatlarini o'quvchilarning psixologik salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Ular orasida depressiya, xavotir, o'ziga ishonchning pasayishi va ijtimoiy izolyatsiya kabi holatlar kuzatiladi. Maktab psixologlari kiberbullingning oldini olish maqsadida profilaktik seminarlar, treninglar va ma'rifiy tadbirlar tashkil etishlari zarur. Shuningdek, ota-onalar va pedagoglarning bu boradagi bilimlarini oshirish ham muhim hisoblanadi. So'nggi yillarda bolalar va o'smirlar orasida internetga qaramlik holatlari ortib bormoqda. Raqamli qaramlik o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi, ijtimoiy faolligini cheklashi va psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Maktab psixologining vazifalaridan biri raqamli qaramlik xavfi mavjud o'quvchilarni aniqlash va ular bilan individual ishlashdan iborat. Psixologik treninglar, vaqtni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ushbu muammoni kamaytirishga yordam beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi psixologik xizmat faoliyatida ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar psixologik diagnostika natijalarini tahlil qilish, xavf guruhidagi o'quvchilarni aniqlash va individual tavsiyalar ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, sun'iy intellekt inson psixologining o'rnini to'liq bosa olmaydi. Chunki psixologik yordam jarayonida empatiya, hissiy qo'llab-quvvatlash va insoniy muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli sun'iy intellekt psixolog faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi lozim. Raqamli ta'lim muhitida maktab psixologi va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik ham yangi ko'rinish kasb etmoqda. Onlayn seminarlar, vebinarlar, elektron monitoring tizimlari va masofaviy maslahatlar ushbu hamkorlikning samaradorligini oshirmoqda. Psixologlar pedagoglarga o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, raqamli muhitdagi xulq-atvori va motivatsiyasini oshirish usullari bo'yicha tavsiyalar beradilar. Bu esa ta'lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar ota-onalar bilan ishlash imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda. Onlayn uchrashuvlar, videokonsultatsiyalar, elektron axborotnomalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali psixologik ma'rifat ishlari olib borilishi mumkin. Bunday faoliyat ota-onalarning farzandlari rivojlanishidagi ishtirokini kuchaytiradi va psixologik xizmat samaradorligini oshiradi.

Raqamli muhitda psixologik monitoring tizimlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus platformalar yordamida o'quvchilarning psixologik holati muntazam kuzatib borilishi mumkin. Bu esa muammolarni erta aniqlash va o'z vaqtida yordam ko'rsatish imkonini beradi. Profilaktik tadbirlarning zamonaviy shakllari sifatida onlayn treninglar, virtual psixologik mashg'ulotlar va interaktiv dasturlar samarali natijalar bermoqda.

Raqamli ta'lim muhitining rivojlanishi maktab psixologik xizmati oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Kiberxavfsizlikni ta'minlash, kiberbullingning oldini olish, raqamli qaramlikka qarshi

kurashish, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish va masofaviy psixologik xizmatlarni rivojlantirish zamonaviy maktab psixologining muhim faoliyat yo'nalishlariga aylanmoqda.

Maktab psixologik xizmatining raqamli transformatsiyasi o'quvchilarning psixologik farovonligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va sog'lom raqamli madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G'oziyev E.G'. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Nishonova Z.T. *Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya*. – Toshkent, 2018.
3. Davletshin M.G. *Pedagogik psixologiya asoslari*. – Toshkent, 2012.
4. Mahmudov M.M. *Ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent, 2019.
5. Dubrovina I.V. *Shkolnaya psixologicheskaya slujba*. – Moskva: Akademiya,
6. UNESCO. *Digital Education Transformation Framework*. – Paris, 2023.
7. OECD. *Digital Education Outlook*. – Paris, 2023.
8. UNICEF. *Children in a Digital World*. – New York, 2024